

Date: 17th April-2026

IJTIMOYIY EHTIYOJMAND OILALAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY USULLARI.

Xamidova Nilufar Rustam qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi Ozbekiston Milliy universitet

tnilufar909@gmail.com

Anotatsiya: Bu maqolada zamonaviy ijtimoiy ish amaliyotida ijtimoiy ehtiyojmand oilalar bilan ishlashning innovatsion usullarini tahlil etadi. Mavzuning dolzarbligi globalizatsiya, raqamlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar sharoitida oilalarning ko'payib borayotgan zaifligi bilan izohlanadi. Unda keys menejment axborot texnologiyalarini (mobil ilovalar, onlayn monitoring tizimlari) joriy etish, travmaga asoslangan yordam, oilaning kuchli tomonlariga tayangan (strengths-based) modellar va oila markazidagi yondashuvlar kabi zamonaviy metodlar batafsil yoritilgan. Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalliy hamjamiyatlar va xususiy sektor o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlikka alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ehtiyojmand oilalar, oilalar bilan ijtimoiy ish, zamonaviy ijtimoiy usullar, oilaviy markazli yondashuv, kuchli tomonlarga asoslangan yondashuv, travmaga asoslangan yordam, keys-menejment.

Abstract: The article analyzes innovative methods of working with socially needy families within the framework of contemporary social work practices. The relevance of the topic stems from the increasing vulnerability of families amid globalization, digitalization, and socio-economic crises. It provides a detailed examination of modern approaches, including case management, the integration of information technologies (mobile applications and online monitoring systems), trauma-informed care, strengths-based models, and family-centered interventions. Special emphasis is placed on integrated cooperation among state agencies, non-governmental organizations, local communities, and the private sector.

Keywords: Vulnerable families, socially needy families, social work with families, modern methods of social work, family-centered practice, strengths-based approach

Аннотация: Статья анализирует инновационные методы работы с социально нуждающимися семьями в рамках современной практики социальной работы. Актуальность темы обусловлена растущей уязвимостью семей в условиях глобализации, цифровизации и социально-экономических кризисов. В ней подробно рассматриваются современные подходы, включая кейс-менеджмент, внедрение информационных технологий (мобильные приложения и системы онлайн-мониторинга), травмоориентированную помощь, модели, основанные на сильных сторонах семьи, и семейно-центрированные вмешательства. Особое внимание уделяется интегрированному сотрудничеству между государственными органами, неправительственными организациями, местными сообществами и частным сектором.



Date: 17th April-2026

Ключевые слова: Социально нуждающиеся семьи, социальная работа с семьями, современные методы социальной работы, семейно-центрированный подход, подход основанный на сильных сторонах, травмоориентированная помощь, кейс-менеджмент



Ijtimoiy himoya – davlat va jamiyatning qariligi, sog‘lig‘i, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik uchun vositalar bilan yetarli ta‘minlanmagani tufayli yordamga muhtoj fuqarolar to‘g‘risida g‘amxo‘rliqi. Ijtimoiy yordam odamlar farovonligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan vaziyatlarning oldini olish, boshqarish va bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lib, ma‘lum guruhlarni qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan davlat xizmatlari to‘plamini o‘z ichiga oladi¹²

Zamonaviy ijtimoiy ishda ehtiyojmand oilalar (ijtimoiy ahvoli og‘ir, kambag‘al, zo‘ravonlikka uchragan, ruhiy jarohat olgan yoki mojaroli hududlardan qaytgan oilalar) bilan ishlash oilani alohida shaxslar emas, balki tizim sifatida ko‘rishga asoslanadi. Bu yondashuv muammolarning ildiz sabablarini aniqlash, oila a‘zolarining o‘zaro ta‘sirini hisobga olish va uzoq muddatli natijalarga erishish imkonini beradi. O‘zbekistonda ham davlat siyosati (Ijtimoiy himoya milliy agentligi, mahalla tizimi) va xalqaro tashkilotlar (UNICEF, Yevropa Ittifoqi loyihalari) bu usullarni faol joriy etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, so‘nggi yillarda qurolli mojarolar hududlaridan, asosan, Suriya va Iroqdan, 400 dan ortiq bolalar va 100 dan ziyod ayollar o‘z vataniga qaytarildi.¹³

O‘zbekiston hukumati ayollar va bolalarning gender jihatlari va yoshini hisobga olgan holda, o‘z oilalari va jamoalariga qayta integratsiyalashuvini ta‘minlash majburiyatini oldi.

Bu oilalarga eng yaxshi yordam ko‘rsatish va bolalarni o‘z mahalliy hamjamiyatlariga reabilitatsiya va reintegratsiyasini samarali o‘tkazish maqsadida UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko‘magida “Yevropa Ittifoqi va BMTning Markaziy Osiyo davlatlarining mojaroli hududlaridan, birinchi navbatda, Suriya va Iroqdan qaytayotgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasida ijtimoiy himoya sohasida ishlaydigan mutaxassis - trenerlar uchun onlayn trening o‘tkazdi.

To‘rt kunlik onlayn trening davomida ishtirokchilar malakali maslahat berish ko‘nikmalaridan foydalangan holda, oilalar bilan ishlash bo‘yicha o‘z bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.¹⁴

“Oila bilan tizim sifatida ishlash bizga ko‘p jihatdan oiladagi muammolarning sabablarini tushunishga imkon beradi va to‘g‘ri maslahat berish ish samaradorligini oshiradi”, - deydi ijtimoiy xodim va murabbiy Lyudmila Kim.

¹² Normamatova. M Itimoiy ish nazaryasi. SamDU 2020

¹³ <https://xs.uz/uz/post/oila-zhamiyat-va-davlat-himoyasida>

¹⁴ Oil VA IJTIMOY PEDAGOGIKA 2022

Date: 17th April-2026



Qurolli to‘qnashuvlar hududlaridan qaytgan bolalar ko‘pincha sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolarga duch kelishadi, urush paytida olingan jarohatlar va kontuziyalar oqibatlarini bartaraf etishga harakat qilishadi. Ular ta‘lim olishda yordamga muhtoj, chunki ularning aksariyati maktabga bormagan. Ammo ular uchun eng qiyin narsa - yaqinlarining o‘limi, zo‘ravonlik, qayg‘u, qo‘rquv va boshqa ruhiy jarohatlar bilan kurashish. Ba‘zi bolalarda hissiy va xulq-atvor muammolari, ruhiy kasalliklar, shu jumladan jarohatdan keyingi stress, depressiya va tashvish paydo bo‘ladi.

Shu bois mashg‘ulotda ruhiy salomatlik, buzilish turlari, profilaktika choralari va bolalar va oilalarga to‘g‘ri yordam ko‘rsatishga alohida e‘tibor qaratildi. Trener bolalar va kattalarda ruhiy salomatlik alomatlarini asosiy diagnostika toifalari va skrining vositalaridan foydalanib tan olish muhimligini qayd etdi, chunki oilaning bir a‘zosining o‘zgarishi boshqalarning o‘zgarishiga ta‘sir qilishi mumkin.

Ishtirokchilar oilaviy chegaralar turlari va oiladagi zo‘ravonlikdan aziyat chekayotgan oilalar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishdilar. Mutaxassislar bunday oilalar bilan ishlash texnikasi, shu jumladan xavfsizlik va yordam rejasini tuzish texnikasi bilan ta‘minlandi.

“O‘zbekistonda ko‘p ayollar uydagi zo‘ravonlik haqida gapirishmaydi, chunki qo‘shnilari tomonidan o‘ziga nisbatan ayblovlardan qo‘rqishadi, zo‘ravonlikni tan olish juda muhim, hatto ayollar bu haqda indamasalar ham”, - deydi Shaxnoza Matchanova, ijtimoiy xodim, Xorazm.

Turli hududlardan kelgan mutaxassislar zo‘ravonlik turlari va xulq-atvor shakllari, xavf omillari, oiladagi zo‘ravonlik va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni muhokama qilishdi. Ular skrining orqali oilalarda oiladagi zo‘ravonlikni tan olish yo‘llarini o‘rganib chiqishdi.¹⁵

“Shunday ishonch borki, g‘uyoki bolalar ota-onalar yashirgan oiladagi oilaviy zo‘ravonlikdan bexabar. Bolalar har doim u haqda bilishadi, hatto ota-onalari ehtiyotkorlik bilan uni yashirishganida ham”, - deydi Dilfuza Hoshimiy, ijtimoiy xodim, Samarqand.

Baholash natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning o‘tilgan mavzular bo‘yicha bilim darajasining o‘rtacha ko‘rsatkichi mashg‘ulot oldidan xuddi shu ko‘rsatkichga nisbatan 5,3 ballga yaxshilandi. Ishtirokchilarning jami bo‘lib, 68 foizi treningda

olgan bilim va ko‘nikmalarini oilalar bilan ishlash amaliyotida qo‘llashni, 84 foizi esa olgan bilimlarini boshqalarga o‘rgatishda foydalanishlarini aytishdi.¹⁶

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, mamlakatimizda ijtimoiy ehtiyojmand oilalarning iqtidorli farzandlarini uzluksiz ta‘lim olishini moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

¹⁵ <https://oefen.uz/uz/documents/slaydlar/umumiy/oilalar-bilan-ishlashning-axloqiy-tamoyillari-1>

¹⁶ [https://buxdu.uz/media/yda_2025/60920101-Ijtimoiy_ish_\(oila_va_bolalar_bn_ishlash\).pdf](https://buxdu.uz/media/yda_2025/60920101-Ijtimoiy_ish_(oila_va_bolalar_bn_ishlash).pdf)

Date: 17th April-2026

1. Ijtimoiy ehtiyojmand oilalarning iqtidorli farzandlarini uzluksiz ta'lim olishini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risida nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy ehtiyojmand oilalarning iqtidorli farzandlarini uzluksiz ta'lim olishini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston yoshlar ittifoqi mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.¹⁷

Moddiy yordam Oilani ijtimoiy himoya qilishning asosiy elementlaridan biri uni moddiy resurslar bilan ta'minlashdir. Bu ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar uchun yaratilgan imtiyozlar, jumladan, soliq imtiyozlari, ijtimoiy sug'urta va kambag'allikka qarshi kurash choralarini o'z ichiga oladi. Oilaning ishonchli moliyaviy bazasi bolalarning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi, ularning sifatli ta'lim va tibbiy xizmatdan foydalanishini ta'minlaydi. Oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

1. Nafaqa tizimlari va bolalar nafaqalari: O'zbekistonda kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordamlar bo'yicha arizalar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Nafaqalar va moddiy yordamlar oilalarning iqtisodiy holatini ma'lum darajada yaxshilashga xizmat qiladi va ijtimoiy himoya tizimida muhim o'rin egallaydi.

2. Soliq imtiyozlari va subsidiyalar: Oilalarga moliyaviy bosimni kamaytirishga qaratilgan soliq imtiyozlarini berish ham moddiy yordamning bir shakli hisoblanib, muhim rol o'ynaydi. Bu bolalar, ularning ta'limi bilan bog'liq soliq imtiyozlari yoki oilalarning moliyaviy ahvolini yaxshilashga qaratilgan soliq yengilliklarini va boshqa ko'rinishdagi davlat subsidiyalarini o'z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar (ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan¹⁰.

3. Ijtimoiy sug'urta: Majburiy ijtimoiy sug'urta va bu yo'nalishdagi davlat yordam dasturlari oilalarga katta moliyaviy xarajatlarsiz sifatli ijtimoiy, xususan tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy sug'urta – davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta'minlash, yordam ko'rsatish tizimi. U kutilmagan ijtimoiy hodisalar turlari (kasallik, baxtsiz hodisalar, nogironlik, keksalik, o'lim hollari), hududiy doirasi (davlat sug'urtasi, mahalliy darajadagi, kasb-tarmoq, xalqaro) bo'yicha turkumlanadi, ko'ngilli va majburiy turlarga bo'linadi.

4. Kambag'allikka qarshi kurash: "Temir daftar," "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Mehr daftari", aholi bandligini ta'minlash dasturlari, pul shaklidagi manzilli yordam kabi kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan dasturlar oilalarning iqtisodiy

¹⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-4260490?ONDATE=08.02.2022%2000>



Date: 17th April-2026

jihatdan zaiflashishiga yo‘l qo‘ymaslik va kambag‘allikdan chiqishi uchun sharoit yaratishga qaratiladi.¹⁸

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi “Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko‘tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o‘rgatish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-300-sonli qarori¹⁷ bilan mahalla xotin-qizlar faoli tomonidan mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar belgilab berildi:

- har bir xonadon ahvolini o‘rganib, oilalardagi haqiqiy holat va ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash;
- ijtimoiy yordamga muhtoj har bir oilani individual ijtimoiy himoya qilish rejasini ishlab chiqish;
- aholi murojaatlari asosida va ijtimoiy himoya rejasining ijrosini o‘rganish jarayonida ijtimoiy xizmatlarning o‘z vaqtida va sifatli ko‘rsatilishini doimiy nazorat qilib borish;
- murakkab va yuqori texnologik tibbiy amaliyotlarga, nogironligi bo‘lgan shaxslarning protez-ortopediya buyumlariga va shu kabi boshqa ijtimoiy xizmatlarga oilalarning ehtiyoji bo‘yicha tavsiyalar va buyurtmalar berish;
- ijtimoiy himoyaga mas‘ul barcha idoralar tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishi ustidan monitoring olib borish.¹⁹

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ehtiyojmand oilalar bilan ishlash an‘anaviy yordam ko‘rsatishdan farqli o‘laroq, oilani yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishga asoslanadi. Oilaviy markazli yondashuv kuchli tomonlarga asoslangan amaliyot va travmaga asoslangan yordam kabi usullar oilaning ichki resurslarini faollashtirish, travma va zo‘ravonlik oqibatlarini yumshatish hamda uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlash imkonini beradi. Bu yondashuvlar nafaqat muammolarni bartaraf etishga, balki oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashga va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda bu zamonaviy usullar davlat siyosati va xalqaro hamkorlik doirasida faol joriy etilmoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va yagona ijtimoiy reyestr tizimi orqali ehtiyojmand oilalarga individual key-menejment asosida kompleks yordam ko‘rsatilmoqda. UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda mojaroli hududlardan qaytgan oilalar, zo‘ravonlikka

¹⁸ Ijtimoiy himoyaning yangi tizimi inson qadrini ta‘minlashga xizmat qiladi – Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 20-fevral kuni o‘tkazilgan ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videosektor yig‘ilishidagi ma‘ruza // <https://president.uz/oz/lists/view/7041>

¹⁹ O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil



Date: 17th April-2026

uchragan ayollar va bolalar bilan ishlashda oilaviy chegaralarni aniqlash, xavfsizlik rejalarini tuzish va reintegratsiya dasturlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahalla yettiligi va jamiyatga asoslangan yondashuv esa profilaktika va oldini olish ishlarini samarali tashkil etishga yordam bermoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Normamatova. M Itimoiy ish nazaryasi. SamDU 2020
2. <https://xs.uz/uz/post/oila-zhamiyat-va-davlat-himoyasida>
3. Oil VA IJTIMOIIY PEDAGOGIKA 2022
<https://oefen.uz/uz/documents/slaydlar/umumiy/oilalar-bilan-ishlashning-axloqiy-tamoyillari-1>
4. https://buxdu.uz/media/yda_2025/60920101-
5. Ijtimoiy_ish_(oila_va_bolalar_bn_ishlash).pdf
6. <https://lex.uz/ru/docs/-4260490?ONDATE=08.02.2022%2000>
7. Ijtimoiy himoyaning yangi tizimi inson qadrini ta'minlashga xizmat qiladi – Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 20-fevral kuni o'tkazilgan ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruza // <https://president.uz/oz/lists/view/7041>
8. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

